

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT – SHVEYTSARIYA DAVLATI MISOLIDA.

Norboyev Sardor Qavmuddinovich -

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Tel: +998905131403

Elektron pochta: sardornorboyev1403@gmail.com

Har bir davlat o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng bevosita dastlab, o'z mamlakati fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida, kuchli demokratik huquqiy davlatni barpo etishni ko'zlab va o'z xalqi siyosida mamlakat konstitutsiyasini qabul qiladi va ushbu konstitutsiya o'sha mamlakatning oliv qonuniga aylanadi. Vakolatga ega bo'lgan davlat organlari esa ushbu oliv bosh qomus tayangan holda o'zining normativ-huquqiy hujjatlarini qabul qiladi. Biroq, tanganing ham ikki tomoni bor deganlaridek, yaxshilik bor joyda yomomlik,adolat bor joyda nohaqliklar ham bo'lib turishi bu hammaga ham sir emas. Ya'ni, davlat organlari va mansabdor shaxslar o'z manfaatlarini ko'zlab, konstitutsiyaga zid kelgan holda qonun va qarorlar qabul qilishi mumkin. Aynan shu kabi muammoli vaziyatlarni oldini olish va adolatsizliklarga chek qo'yish uchun konstitutsiyaviy nazorat instituti muhimdir.

Konstitutsiyaviy nazorat - bu qonunlar va boshqa huquq manbalarini konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirishdan iborat davlat faoliyatining tartibi. Konstitutsiyaviy nazorat va nazoratni amalga oshirishda har doim, eng avvalo, e'tiroz bildirilayotgan qonun, kodeks, milliy konstitutsiya aktining muvofiqligi baholanadi. Agar norma konstitutsiyaga zid ekanligi aniqlansa, u yo yuridik kuchga ega bo'lmaydi va qo'llanilmaydi yoki bekor qilinadi.

Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi 1803 yilda AQShda va keyinchalik biz quyida tilga oladigan Shveytsariyada paydo bo'lgan.

Shveytsariya – kanton (ma'muriy-hududiy birlik) lardan iborat federal parlament respublika hisolanadi. Har bir kantonning o'z qonunlari, parlamenti va hukumati bor, lekin federal qonun bilan kanton huquqlari muayyan holatlarda cheklangan. Shveytsariyada qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatadan tashkil topgan Federal Majlis (Parlament) ga tegishli: Milliy Kengash (200 a'zo) va Kantonlar Kengashi (45 a'zo). Ijroiya hokimiyatni 4 yilga saylanadigan 7 federal maslahatchi (vazir) dan iborat Federal Kengash (hukumat) amalga oshiradi. Davlat va hukumat boshlig'i - konfederatsiya prezidenti, parlament tomonidan bir yilga federal maslahatchilar orasidan navbat bilan saylanadi.

Federal Konstitutsiya – Shveytsariya federal parlament respublikasining konstitutsiyasi. Bu Shveytsariya huquq tizimidagi asosiy qonun hujjati bo'lib, barcha federal, kantonal va kommunal aktlar, qarorlar va boshqa qonun hujjatlaridan ustun turadi. Boshqa demokratik davlatlar konstitutsiyalari bilan solishtirganda, Shveytsariya Federal Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyati bor: u federal qonunchilikka konstitutsiyaviy e'tiroz bildirishni nazarda tutmaydi, ya'ni qonun parlament tomonidan qabul qilingandan keyin Federal Oliy sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Shuningdek, boshqa konstitutsiyalardan farqli o'laroq, Federal Konstitutsiya muntazam ravishda o'zgartiriladi. Shveytsariya fuqarolari xalq tashabbusini uyushtirib, Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish yoki yangi moddaning qabul qilinishini talab qilishlari mumkin. Konstitutsiyanı qisman yoki to'liq qayta ko'rib chiqish saylovchilarning ko'pchiligi va kantonlarning ko'pchiligi tomonidan ma'qullanishi kerak. Shveytsariyada bundan tashqari demokratiya ancha rivojlangan. U yerda demokratiyaning to'g'ridan – to'g'ri demokratiya shakli amal qiladi. To'g'ridan – to'g'ri demokratiya bu Shveytsariya siyosiy tizimining o'ziga xos xususiyatidir. Bu saylovchilarga federal parlament tomonidan qabul qilingan qarorlar bo'yicha o'z fikrini bildirish va Federal Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishni taklif qilish imkonini beradi.

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

Shveytsariyada konstitutsiyaviy nazoratga keladigan bo'lsak, ma'lumki mamlakatda konstitutsiyaviy nazoratni hukumat va davlat organlaridan tashqari, asosan, nazoratni konstitutsiyaviy odil sudlov amalga oshiradi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, demak, Shveytsariyada konstitutsiyaviy nazoratni Federal Oliy sud va umumiylar yurisdiksiya sudlari amalga oshiradi. Ya'ni, fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlar odatdagi protsedura asosida konstitutsiyaviy masalalarni hal etishadi. Shu sababli, Shveytsariya konstitutsiyaviy nazoratning "diffuse" deb ataladigan tizimini keng tarqalgan. "Diffuse" ingliz tilidan tarjima qilinganda "keng yoyilgan, keng tarqalgan" degan ma'noni anglatadi.

O'zining siyosiy tizimiga muvofiq Shveytsariya sud tizimi federalizm asosida shakllanrilgan. 26 kantonda odatda bir nechta quyi okrug sudlari, shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha yurisdiktsiyaga ega bo'lgan yagona oliy sud yoki kantonal sudi mavjud. Federal darajada, Federal Jinoyat sudi, birinchi instantsiya sudi sifatida, federal yurisdiktsiyaga kiruvchi jinoiy ishlarni (masalan, portlovchi moddalar bilan bog'liq jinoyatlar, uyushgan jinoyatlar) hal qiladi. Bunday hollarda ish yuritish Federal jinoiy adliya qonuni bilan tartibga solinadi. Shuningdek, federal ma'muriy organlarning qarorlari bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqadigan Federal ma'muriy sud mavjud va bu murojaatlar Ma'muriy protsessual qonun bilan tartibga solinadi.

Shveytsariya Federal Oliy sudi - Shveytsariyadagi oliy sud organi hisoblanadi. Bu Federal bilan bir qatorda uchinchi hokimiyat tarmog'ini, sud hokimiyatini tashkil qiladi. Federal Oliy sud 38 nafar oddiy va 19 nafar sudyalar o'rindbosarlaridan iborat. Ularga 127 kotib yordam beradi, ular sudyalar bilan birgalikda qarorlar loyihasini ishlab chiqadi va ajrimlarni yozadi. Federal sudyalar Sudyalar qo'mitasi tomonidan taklif qilinadi va Birlashgan Federal Majlis (Milliy Kengash va Kantonlar Kengashi) tomonidan olti yil muddatga saylanadi. Ular cheksiz ko'p marta qayta saylanishi mumkin.

Federal Oliy sud yetti bo'limga ega.

Birinchi jamoat huquqi bo'limi quyidagi sohalarda davlat huquqi bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqadi:

mulkchilik kafolati, milliy va mintaqaviy fazoviy rejalashtirish va qurilish qonunchiligi; atrof-muhitni muhofaza qilish, siyosiy huquqlar, jinoiy ishlarda xalqaro sud hamkorligi masalalari; yo'l harakati (shu jumladan haydovchilik guvohnomalarini bekor qilish), fuqarolik, tegishli kafolatlar, jinoyat protsessida tasodifiy ajrimlar ustidan sud jarayoni va shikoyatlar.

Ikkinci jamoat huquqi bo'limi quyidagi sohalarda yurisdiktsiyaga ega:

chet elliqlar, soliqlar va bojlar, davlat tijorat huquqi (masalan, davlat javobgarligi, subsidiyalar, radio va televideniye), din va vijdon erkinligi, til erkinligi va iqtisodiy erkinlik. Birinchi fuqarolik huquqi bo'limi fuqarolik ishlari bo'yicha barcha murojaatlarni ko'rib chiqadi: Majburiyatlar kodeksi, shuningdek, u sug'urta shartnomalari, intellektual mulk huquqlari va raqobat qonunchiligi, shuningdek, xalqaro arbitraj bilan bog'liq ishlarni ko'radi.

Fuqarolik huquqining ikkinchi bo'limi:

shaxslar huquqi, oila huquqi, huquq bo'yicha ixtisoslashgan meros va mulk huquqi masalalarini ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, u qarz bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqadi. Moliyaviy tiklanish va bankrotlik masalalari ham uning zimmasida.

Jinoyat huquqi bo'limi jinoyat ishlari bo'yicha materiallardan kelib chiqadigan murojaatlarni ko'rib chiqadi:

jinoyat qonuni (jumladan, jazo va choralarini ijro etish) va Kodeksdan jinoyat protsessi (jinoyat protsessida tasodifiy ajrimlar ustidan berilgan shikoyatlar bundan mustasno) masalalarini ko'radi. Birinchi ijtimoiy huquq bo'limi quyidagi masalalar bo'yicha yurisdiktsiyaga ega: nogironlik sug'urta, baxtsiz hodisalardan sug'urta, ishsizlik sug'urtasi, kantonal ijtimoiy sug'urta, oilaviy nafaqalar, ijtimoiy yordam, harbiy sug'urta va davlat xizmati qonunlari.

Ikkinci ijtimoiy huquq bo'limi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha murojaatlar bilan shug'ullanadi: keksalik va boquvchisini yo'qotganlar sug'urtasi, nogironlik sug'urtasi, daromadni yo'qotish to'lovlari va qo'shimcha nafaqalar, tibbiy sug'urta va kasbiy pensiyalar.

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

Federal Oliy sud vakolatlari esa Shveytsariya federal konstitutsiyasida ko'rsatib o'tilgan. Konstitutsiyaning 4-bobi sud hokimiyatiga bag'ishlanadi.

4-bob. Federal Oliy sud va boshqa sud organlari

188-modda. Federal Oliy sudning lavozimi

1. Federal Oliy sud oliv federal sud organi hisoblanadi.

2. Uni tashkil etish va uning tartibi qonun bilan tartibga solinadi.

3. Federal Oliy sud o'z boshqaruvini ta'minlaydi.

189-modda. Federal Oliy sudning yurisdiktsiyasi

1. Federal Oliy sud quyidagi huquqbazarliklar bo'yicha yurisdiktsiyaga ega:

a. federal qonun;

b. xalqaro ommaviy huquq;

c. interkantonal huquq;

d. kantonning konstitutsiyaviy huquqlari;

e. federal va kantonal qoidalar va siyosiy huquqlar.

2. Konfederatsiya va kantonlar o'rtasidagi ommaviy huquq nizolarini ko'rib chiqadi.

191-modda. Federal Oliy sudga kirish

1. Qonunchilik Federal Oliy sudga kirishni kafolatlaydi.

2. Asosiy ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy masalaga taalluqli bo'lмаган nizolar uchun chegaraviy summa nazarda tutilishi mumkin.

3. Ayrim masalalar bo'yicha Federal Oliy sudga kirish mumkin qonun bilan istisno qilingan.

4. O'z-o'zidan asossiz shikoyatlar bo'yicha qonun hujjatlarida soddalashtirilgan tartib nazarda tutilishi mumkin.

Bundan tashqari, Federal Oliy sudning asosiy vakolatlaridan biri bu – mamlakatda qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni federal konstitutsiyaga muvofiq kelishini ta'minlashdir. Ya'ni, Federal Oliy sud – Shveytsariyada konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshiradigan va konstitutsiyaviy nazoratni taminlaydigan oliy davlat organi hisoblanadi.

Shveytsariya konstitutsiyaviy nazorati bilan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorati solishtirganda, bizning shubhasiz, katta tafovutga ko'zimiz tushadi. Chunki, Shveytsariya konstitutsiyaviy sud nazoratini tashkil etish bo'yicha "Amerika modeli"ga taalluqli bo'lsa, biroq O'zbekiston esa "Yevropa modeli"ga tegishlidir. Keling, buni ilmiy jihatdan tahlil qilsak:

Amerika modeli – konstitutsiyaviy nizolarni oddiy sudlar odatdag'i protsedura asosida ko'rib chiqadilar. Bu esa markazlashmagan nazorat deb ataladi. Shu bilan birga bunday nazorat qilish huquqi har bir sud instansiyasida yoki faqat Oliy sudda berilishi mumkin. Darhaqiqat, ushbu sud ushbu huquqning asosiy tashuvchi va amalga oshiruvchisidir.

Yevropa modeli – konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish uchun maxsus organlar tuziladi. Bular: Konstitutsiyaviy sud va Konstitutsiyaviy kengashdir.

Ular oliy sudlar singari sudlarning instansiya tizimiga rahbarlik qilmaydi. Ko'pincha ular mamlakatda yolg'iz va bundan tashqari, federatsiya subyektlari o'z konstitutsiyaviy sudlariga ega bo'lgan federal davlatlarda ushbu sudlar mustaqil, garchi ularning vakolatlari shunga ko'ra cheklangan bo'lsa ham.

Demak, Shveytsariyada konstitutsiyaviy sud nazoratini Federal Oliy sud va umumiy yurisdiksiya sudlari amalga oshirsa, O'zbekistonda esa Konstitutsiyaviy sud bu vazifa bilan shug'ullanadi.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, konstitutsiya bu - inson huquq va erkinliklari kafolati va millatni ushlab turuvchi huquqiy va qonuniy tayanch. Shunday ekan, uni himoya qilish va nazoratini amalga oshirish nafaqat davlat hokimiyati vazifasi balki yashab turgan har bir fuqaroning burchidir.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS
VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

1. <https://kidsplaneta.ru/uz/organy-konstitucionnogo-kontrolya-nadzora-v-zarubezhnyh-stranah-vidy/>
2. <https://buhconsul.ru/uz/konfederativnoe-gosudarstvo-na-primere-shveicarii-shveicariya--/>
3. Constitutional Review and Democracy – Constitutional Courts and the Legislative Process by Mr Hans-Heinrich VOGEL Professor of Public Law, University of Lund, Sweden. Strasbourg, 15 July 2003;
4. Federal Constitution of the Swiss Confederation of 18 April 1999 (Status as of 1 January 2021)
5. A visit to Federal Supreme court. bg_leporello_e.pdf.